



BOYSUN TUMAN QO'SHMA TARKIBLI ORONIMLARI

Kenjayev Zohirjon

Terdu o'zbek tilshunosligi o'qituvchisi

zohirkenjayev@tersu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7462504>

ARTICLE INFO

Received: 10th December 2022

Accepted: 18th December 2022

Online: 20th December 2022

KEY WORDS

Toponimika, onomastika, oronimlar, areal lingvistika, murakkab tarkibli oronimlar.

XX asrning 60-70-yillarida o'zbek tilshunosligida bir qator ilmiy yo'nalishlar paydo bo'ldi. Masalan: eksperimental fonetika, fonologiya, morfonologiya, frazeologiya, stilistika (uslubshunoslik), nutq madaniyati, ijtimoiy tilshunoslik (sotsiolingvistika), areal lingvistika, lingvostatistika kabilar. O'zbek onomastikasi ham o'sha davrlarda vujudga kelgan tilshunoslikning yangi sohalaridan biri sanaladi. O'zbek onomastikasi (nomshunosligi) o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biriga aylandi. O'zbek nomshunosligi bo'yicha olib borilgan keng ko'lamli tadqiqotlar o'zbek onomastikasi sohasini bir qator monografiyalar, risolalar, izohli lug'atlar, ko'p sonli ilmiy maqolalar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bilan boyitdi¹.

Onomastika fani atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga ko'ra quyidagi guruh (bo'lim)larga ajratadi:

¹ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич (XIX аср охиридан – 2008 йилгача эълон қилинган ишлар олинган). – Наманган, 2008, 168 -бет.

ABSTRACT

Mazkur maqolada oronimlar mavzusida so'z yuritiladi. Oronim tushunchasi tavsifi, Boysun tumanida uchrovchi oronimlarning qo'shma tarkibga ega shakllari tahlil qilinadi. O'zbek tilshunosligida qo'shma otlarning yasalishi masalasi va oronimlarga tegishli xususiyatlari bayon etilgan.

antroponimiya – kishilarning atoqli nomlari (ismlari, familiyalari, ota ismlari, laqablari, taxalluslari), *toponimiya* – geografik obyektlarning atoqli nomlari, *teonimiya* – turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari, *zoonimiya* – hayvonlarga qo'yiladigan (shartli) atoqli nomlar, laqablar, *kosmonimiya* – fazoviy bo'shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan nomlari, *astronimiya* – ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar) nomlarining majmuini o'zida ifodalaydi. Bundan tashqari onomastikaning yana bir qancha bo'lim (guruh)lari mavjud. Masalan, onomastikaning bir bo'limi *realionimlar* (avval va hozir mavjud bo'lgan obyektlarning nomlari) deb nomlansa, unga zid bo'lgan *mifonimlar* xayoliy – to'qima obyektlarning nomlarini bildiradi. Bu guruhlarning orasida o'ziga xos tuzilish va yasalishi tizimiga ega bo'lgan oronimlar haqida so'z yuritimiz. 1960-1970-yillarda oronimika toponimikaning alohida sohasi



sifatida ajralib, mustaqil yo'nalish sifatida shakllana boshlagan. Oronim termini tarkibiga ko'ra grekcha oros – tog', onyma – nom kabi ma'noli qismlardan iborat. Oronimlar yig'indisi oronimiya deyiladi. Toponimikaning ma'lum bir til yoki region oronimlari majmuini, ularning paydo bo'lishi, rivojlanishi va shakllanishini o'rganadigan bo'limi oronimika deyiladi². O'zbek tilshunosligida qo'shma otlarning (bu fikrlar oronimlarga ham tegishli) yasalishi masalasida turlicha yondashishlar kuzatiladi. Mavjud faktlarning ko'rsatishicha, qo'shma otlar tarixan so'z birikmalarining yaxlitlanib, qo'shilishi orqali kelib chiqqanligi sababli ularning yasalishi to'g'risida turlicha qarashlar mavjud. Shuning uchun bo'lsa kerak, qo'shma so'zlar masalalariga bag'ishlangan ayrim lingvistik adabiyotlarda ularning sintaktik-semantik, sintaktik-morfologik usullar bilan yasalishi qayd etilgan bo'lsa, boshqa bir ishlarda sintaktik-leksik, sintaktik-morfologik, morfologik usullar bilan yasalishi ko'rsatilgan³. Keyingi davrlarda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari o'z aksini topgan adabiyotlarda ularning yasalishi to'g'risidagi munosabatlarda o'zgarishlar sodir bo'lganligini ko'rish mumkin. Jumladan, ularda qo'shma so'zlarning yasalishiga nisbatan sintaktik-leksik, kompozitsiya usuli atamalarini qo'llanishi kuzatiladi⁴. A.Hojiyevning keyingi tadqiqotlarida qo'shma so'zlar yasalish hodisasi sifatida

inkor etilganligini ko'rish mumkin⁵. Qo'shma so'zlarning yasalishiga nisbatan qo'llanilgan sintaktik-semantik yoki uning keyingi atalishi sintaktik-leksik usul bilan qo'shma otlarning yasalishi deganda so'z birikmasining yaxlitlanib, qo'shilishi natijasida bir tushunchani ifodalaydigan so'zlar hosil bo'lishi, boshqacha qilib aytganda, qo'shma otga ko'chishi nazarda tutiladi. Qo'shma otlarning sintaktik-morfologik usulda yasalishida esa so'z birikmasiga yasovchi affikslarning qo'shilishi orqali yangi tushuncha ifodalanishi nazarda tutilgan. Qo'shma otlarning morfologik yoki uning keyingi atalishi, kompozitsiya usulida yasalishi deganda ikki asos, ya'ni mustaqil so'zning qo'shilishidan yangi ma'no ifodalovchi so'z hosil bo'lishi nazarda tutilgan.

Qo'shma so'zlarning yasalishi bilan bog'liq bu xususiyatlar to'laligicha Boysun tuman oronimlar yasalishida ham tegishlidir. Tarkibiy tuzilishiga ko'ra birdan ortiq lug'aviy birliklardan tashkil topgan oronimlar qo'shma tarkibli oronimlar deyiladi. Qo'shma tarkibli oronimlarning tarkibida tog', cho'qqi, qir, qoya, tepa, tal (tepa), qiz, qo'l, bel, tumshuq, gaza, taxta, dara, dovon, jar, tosh, sang, qum kabi orografik indikatorlar faol ishtirok etadi. Ular orografik obyektlarning turini bildiruvchi so'z sifatida nomning qanday orografik obyekt xiliga tegishli ekanligini ko'rsatib turadi. Masalan: Otkamar (dara), Oqjar (jar), Oqtapa (tepa), Suvsiztog' (tog'), Suvsizdara (dara), Go'rdara (dara), Otguzar va b. Qo'shma tarkibli oronimlarni morfologik asosi va tuzilish modeliga ko'ra

² Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – Москва: Наука, 1978. – С. 105.

³ Hojiyev A. O'zbek tilida qo'shma, juft va takroriy so'zlar. – Toshkent, 1963. – B.9-10.

⁴ Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi. – Toshkent, 1989. – B.30.

⁵ Qarang: Hojiyev A. O'zbek tilida so'z yasash usuli masalasiga doir// O'zbek tili va adabiyoti, 1999, № 4. – B. 35- 42; O'zbek tili so'z yasalish tizimi. – Toshkent:O'qituvchi, 2007. – 168 b.



quyidagi turlarga ajratib tahlil qilish mumkin:

1. Ot+ot tipi. Bu model asosida yasalgan oronimlarning tuzilishida bir xillik kuzatiladi, ya'ni ular biron-bir grammatik vosita qabul qilmasdan o'zaro qo'shilish xususiyatiga ega. So'z yasalishining kompozitsiya usulida affikssiz birikishi, ya'ni komponentlarning hech qanday grammatik ko'rsatkich olmay birikishi avvaldan faol bo'lgan. Ular tarkibida grammatik ko'rsatkichning bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'iy nazar ularning ayrimlari sintaktik munosabatda farqlanib turadi. Bu narsa komponentlarning qanday so'zlardan tashkil topganligiga bog'liq. Shu jihatiga ko'ra, bu tipga tegishli qo'shma oronimlar asosan qaratqich+qaralmish va aniqlovchi +aniqlanmish munosabatidan shakllangan bo'ladi. Bu model asosida tarkib topgan oronimlar birinchi komponentining qanday so'zlardan iborat bo'lishiga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi:

1) antroponim+ot tipi. Bu tipga tegishli oronimlar garchi grammatik ko'rsatkichlarini saqlamagan bo'lsa-da, qaratqich+qaralmish munosabatiga ega. Shuning uchun ham ularning komponentlari sintaktik jihatdan bir xil mavqega ega emas. Masalan, Temirdara (dara), Bozorqo'li (dara) va b.

2) etnonim+ot tipi. Bu tipga tegishli oronimlar ham yuqoridagi yasalish xususiyatiga ega. Masalan: Arabishahit, Xitoyxalqa va b.;

3) fitonim + OI tipi. Bu tipga tegishli oronimlar nomlanuvchi obyektida biron-bir o'simlik turi mavjudligini ko'rsatib keladi. Ular aslida -li qo'shimchasi bilan shakllangan bo'lishi va keyinchalik qo'llanish xususiyatiga ko'ra bu qo'shimcha tushib qolgan bo'lishi mumkin. Shu jihatiga ko'ra ularni aniqlovchi+aniqlanmish

munosabatiga ega deb aytsak to'g'ri bo'ladi. Masalan: Archamaydon, Archaxut (dara), Andizli (tepa), Irg'ayli (tog'), Piyozli (adir) va b.;

4) zoonim+ OI tipi. Bu tipga kiruvchi oronimlarning birinchi komponenti bo'lib kelgan so'z nomlanayotgan obyektning belgisini bildiruvchi aniqlovchi vazifasida kelganligi uchun ular aniqlovchi+aniqlanmish munosabatini namoyon qiladi. Masalan: Bo'rijar (jar), Ho'kizxona (dara), Ottuyog'i (gaza), Otkamar, Tuyabo'ynoq va b.;

5) orografik indikator + OI tipi. Bu tipdagi oronimlarda ham birinchi komponent orografik terminlardan shakllangan bo'lsa ham, nomlanayotgan obyektning turli belgilarini ifodalab keladi. Shuning uchun bu nomlar aniqlovchi+aniqlanmish munosabatiga ega. Masalan: Devorkamar va b.;

2. Ot+sifat tipi: Bo'ynoq (dara) Qo'rg'onibolo (tepa).

3. Sifat+ot tipi. Bu modelda yasalgan oronimlarning birinchi komponenti obyektning turli belgi-xususiyatlarini aniqlab keladi. Shunga ko'ra ular sifatning turli ma'no guruhlariga tegishli bo'ladi:

a) hajm va o'lchovni ifodalovchi sifatlar+ot: Uzunsoy (soy), Kattaqo'ton (tepa);

b) shaklni ifodalovchi sifatlar+ot: Aylanchar, Teshiktosh ;

v) rang-tusni ifodalovchi sifatlar+ot: Oqdara, Oqjar, Oqchahak (dara), Sariqtepa, Siyorek (qoya), Qoramas (tog') v,b;

g) xarakter-xususiyatni ifodalovchi sifatlar+ot: Yomontosh (dara), Ko'rdara ;

d) joylashgan o'rnini bildiruvchi sifatlar+ot: Yuqoritumshuq, O'rtatumshuq, Tangisar, Terskay;

Bu model asosida yasalgan qo'shma tarkibli oronimlarning tahlili uni o'zbek tili qo'shma oronimlarining yasalishida eng



sermahsul modellardan biri ekanligini ko'rsatdi. Chunki oronimlarning yuzaga kelishida orografik obyektning turli belgi-xususiyatlari asosida nomlash tendensiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Qo'shma oronimlarning bu turi ham biron-bir grammatik ko'rsatkichsiz qo'llanish xususiyatiga ega

7. Son+ot tipi. Bu tipdagi oronimlarning komponentlari ham aniqlovchi+aniqlanmish munosabatida shakllangan bo'ladi. Ularning aniqlanmish vazifasida kelgan komponenti asosan, orografik indikatorlardan tashkil topgan. Masalan: Qirqqiz, Beshqiz, Uchtepa (tepa), Oltiko'l. Bu model bilan yasalgan ayrim oronimlarning shakllanish munosabati murakkab xarakterga ega. Ularning tarkibida obyektни ifodalaydigan komponent mavjud bo'lmaganligi uchun ularning ma'nosida mavhumlik mavjud bo'ladi.

8. Numerativ+ot tipi. Bu tipdagi yasaliş huddi son+ot tipidagi yasalişga o'xshab, aniqlovchi+aniqlanmish munosabatini namoyon qiladi. Yakkaarcha (tepa) Yetimtog', Qo'shchashma.

Boysun tuman qo'shma tarkibli oronimlarining tahlili ularning yasalişida otlarga turli fe'l shakllarining qo'shib kelishidan hosil bo'lgan, ya'ni ot+fe'l tipidagi oronimlar ham mavjudligini ko'rsatda. N.Begaliyevning ko'rsatishicha, predikativ munosabatdan yasalgan bunday nomlarning birinchi komponenti harakat subektini, ikkinchi komponenti harakatning o'zini bildiradi, toponimikada bunday turdagi nomlar ifodalanish materialiga ko'ra fe'l oronimlar deb yuritiladi⁶. E.Begmatov., N.Uluqovlarning –

⁶ Begaliyev N. Samarqand viloyati gidronimlari (lisoniy tahlili): Filol. fan. nom. ... diss. – Samarqand, 1994. – B. 73.

O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'atida ham fe'l turkumidan yasalgan orografik obyekt nomlari fe'l oronim hisoblanishi ta'kidlangan⁷.

Sh.Temirov o'z ishida fe'l turkumidan yasalgan oronimlarni murakkab tarkibli toponimlar sirasiga kiritadi. Ular sodda va qo'shma tipdagi toponimlardan farq qilib, birikmaga, ayrim hollarda gapga teng bo'lishini ta'kidlaydi⁸.

A. Hojiyev tarkibida fe'l turkumiga tegishli so'zlar qatnashgan gap shaklidagi qo'shma so'zlarni okkazional yasaliş, lisoniy birlik emas, nutq birligi deb qarash to'g'ri bo'ladi, deb hisoblagan⁹.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, biz ham fe'l turkumidan yasalgan orografik obyekt nomlarini o'ziga xos tuziliş xususiyatini hisobga olgan holda murakkab tarkibli oronimlar sirasiga kiritishni ma'qul deb hisoblaymiz. Chiqargan xulosamiz bo'yicha ilmiy dalillarni keyingi ishlarimizda keng kitobxon ommasiga yetkazamiz.

⁷ Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006. – B. 88.

⁸ Temirov SH. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. Filol. fan. falsafa dokt. ... dis. avtoref. – Samarqand, 2019. – B.19.

⁹ Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasaliş tizimi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – B. 12.



References:

1. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – Москва: Наука, 1978. – С. 105
2. Hojiyev A. O'zbek tilida qo'shma, juft va takroriy so'zlar. – Toshkent, 1963. – B.9-10.
3. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi. – Toshkent, 1989. – B.30.
4. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006. – B. 88.
5. Temirov SH. Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi. Filol. fan. falsafa dokt. ... dis. avtoref. – Samarqand, 2019. – B.19
6. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич (XIX аср охиридан – 2008 йилгача эълон қилинган ишлар олинган). – Наманган, 2008, 168 -бет.